



Yo'lqurilish
Aksiyadorlik Jamiyati

**Korrupsiyaga qarshi kurashish
sohasidagi “YO’LQURILISH” AJning
2025 yilda o’z oldiga belgilagan
asosiy yo’nalishlari**

**So‘ngi yillarda
mamlakatimizda
korruptsiyaga qarshi
kurashishda natijalarga
erishildimi?**



Davlatlarda korrupsiya darajasi va unga qarshi kurashish borasida hukumatlar tomonidan amalga oshiriladigan ishlarni baholab boruvchi “Transparency International” tashkilotining tahliliga ko‘ra, 2023,2024-yillarda **Korrupsiyani qabul qilish indeksi (CPI) bo‘yicha, dunyoning 180ta davlatlar orasida O‘zbekiston 121-o‘rinni egalladi** (36 pog‘ona ko‘tarildi).



CORRUPTION PERCEPTIONS INDEX 2023

The perceived levels of public sector corruption in 180 countries/territories around the world.




www.transparency.org/cpi

#CPI2023

This work from Transparency International is licensed under CC BY-ND 4.0

Ma'lumot uchun:

2017-yilda 157 o‘rin;
2018-yilda 158 o‘rin;
2019-yilda 153 o‘rin;
2020, 2021-yillarda 140 o‘rin;
2023, 2024-yillarda 121 o‘rin.



**Bugungi
kunda**

**korruptsiyaga qarshi
kurashish**



**O‘zbekiston Respublikasining
davlat siyosati
sifatida belgilandi**


Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati **davlat dasturlari** va boshqa dasturlar asosida amalga oshirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining
"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"
Qonunning 6-moddasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrda PF-200- son Farmoniga 1-ILOVA					
Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2023-2024-yillarga mo'ljallangan					
DAVLAT DASTURI					
Tir	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
I. Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olish					
5.	Davlat organlari va tashkilotlari budjetdan tashqari jamo'armalarga kelib tushayotgan mablag'larning sarflanishi usidan samarali jamoatchilik nazoratini o'rnatish.	Davlat organlari va tashkilotlari budjetdan tashqari jamo'armalarga kelib tushayotgan mablag'lar (jarima, davlat mulkini ijaraga berish va sotish, pullik xizmatlar ko'rsatish va boshqa), ularning sarflangan maqsad va yo'nalishlari haqidagi ma'lumotlarni ochiq ma'lumotlar portali va rasmiy veb-saytlarda e'lon qilinishini nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2024-yil mart	-	Iqtisodiyot va moliya vazirligi (I. Norqulov), Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (A. Burxanov), Bosh prokuratura (N. Yo'ldoshev)
IV. Davlat xaridlarini amalga oshirish sohasida korrupsiyaning oldini olish					
15.	Davlat organlari va tashkilotlarga tegishli korporativ bank kartalari orqali xaridlarni amalga oshirish jarayonini tartibga solish.	Davlat buyurtmachilari tomonidan davlat xaridlarini korporativ bank kartalari orqali amalga oshirish tartibini ishlab chiqish va tasdiqlash.	2024-yil aprel	-	Iqtisodiyot va moliya vazirligi (I. Norqulov), Markaziy bank (M. Nurmuratov), Adliya vazirligi (A. Tashkulov)

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDAGI DAVLAT SIYOSATINING ASOSIY YO'NALISHLARI:

- 1) aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, **jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murossasiz munosabatni shakllantirish;**
- 2) davlat va jamiyat hayotining **barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;**
- 3) **korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni** o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik **uchun javobgarlikning muqarrarlighi prinsipini ta'minlash.**




KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHGA QARATILGAN NORMATIV HUJJATLAR:

O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi O‘RQ-419-son “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni;

O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari: “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 11-sentyabrdagi O‘RQ-445-son, “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi 2021-yil 21 apreldagi O‘RQ-369-son, “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi 2018-yil 8-yanvardagi O‘RQ-457-son, “Jamoatchilik nazorati”gi 2018-yil 12-apreldagi O‘RQ-474-son, “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi 2019-yil 10-maydagi O‘RQ-537-son, “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi 2022-yil 8-avgustdagi O‘RQ-788-son, “Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to‘g‘risida”gi 2023-yil 8-avgustdagi O‘RQ-860-son, “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi 2024-yil 5-iyundagi O‘RQ-931-son;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari (2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son, 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son, 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son, 2021-yil 6-iyuldagi PF-6257-son, 2021-yil 24-iyuldagi PF-6269-son, 2021-yil 6-iyuldagi PQ-5177-son, 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son, 2022-yil 20-apreldagi PF-113-son, 2022-yil 11-maydagi PQ-240-son, 2022-yil 14-iyundagi PF154-son, 2002-yil 21-iyundagi PF-269-son, 2023-yil 25-yanvardagi PF-14-son, 2023-yil 27-dekabrdagi PF-200-son, 2024-yil 5-iyundagi PQ-210-son, 2024-yil 21-iyundagi PQ-228-son);

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari (2020-yil 31-dekabrdagi 829-son, 2022-yil 16-maydagi 259-son, 2022-yil 20-maydagi VMQ-276-son) va boshq.




O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi O'RQ-419-son “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida” Qonuni

**Qonun bilan quyidagilar
belgilandi:**

- korrupsiya tushunchasi;
- manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi;
- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari;
- korrupsiyaga qarshi kurashuvchi davlat organlari va ularning vakolatlari;
- korrupsiyani oldini olishga doir chora-tadbirlar;
- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarligi.





KORRUPSIYA DEGANDA NIMA TUSHUNILADI?

“Korrupsiya - shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish”.

O‘zbekiston Respublikasining
“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”
Qonunning 3-moddasi

KORRUPSIYANING TURLARI



MAISHIY KORRUPSIYA

– davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasida fuqarolar va davlat xizmatchilari o'rtasida vujudga keladigan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik



ISHBILARMONLIK (BIZNESDAGI)

KORRUPSIYA – ushbu qilmish davlat xizmatchilari va tadbirkorlar o'rtasida sodir etiladi



YUQORI HOKIMIYAT VAKILLARI KORRUPSIYASI

– bu qilmish mamlakatning yuqori turuvchi hokimiyat rahbarlari, sud hokimiyati, huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan sodir etiladi




KORRUPSIYANING SABABLARI

1.IQTISODIY – davlat xizmatchilarining past oylik maoshi

2.INSTITUTIONAL – davlat idoralari ishidagi yopiqlik, davlatning kuchsiz kadrlar siyosati

3.IJTIMOY-MADANIY – fuqarolarning tartibsizligi, jamoatchilik passivligi



Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari



- Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi
- Bosh prokuratura
- Davlat xavfsizlik xizmati
- Ichki ishlar vazirligi
- Adliya vazirligi
- Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa davlat organlari.

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" Qonunning 7-moddasi

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi

TARKIBI



O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi tarkibi jami 39 davlat organlari va idoralari rahbarlaridan iborat. Ularga, jumladan, kiradi:



O'zbekiston
Respublikasi Oliy
Majlisi Senati Raisi,
Milliy kengash raisi
Tanzila Narbaeva

1.	T.K.Narbaeva	—	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati raisi, Milliy kengash raisi
2.	A.X. Saidov	—	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rinbosari, Milliy kengash raisining o'rinbosari
3.	X.B. Yodgorov	—	O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi raisi
4.	B.J. Islamov	—	O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi
5.	N.T. Yo'ldoshev	—	O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori
6.	G.X. Yoziev	—	O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati raisi o'rinbosari
7.	J.J. Shirinov	—	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi qo'mita raisi
8.	N.M. Umarov	—	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati qo'mita raisi
9.	D.M. Saidjanov	—	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktorining birinchi o'rinbosari
10.	B.T. Turabov	—	O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi raisining birinchi o'rinbosari
11.	B.O. Saidov	—	O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri
12.	A.D. Tashkulov	—	O'zbekiston Respublikasi adliya vaziri
13.	.R. Bobojonov	—	O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri va boshq.

1. “Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish” yo‘nalishida amalga oshirilgan ishlar:



“Shaxs - oila - mahalla - ta’lim muassasasi - tashkilot - jamiyat” prinsipi bo‘yicha tizimli va uzviy **jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishlari tashkil etildi** (2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-son Farmoni)



Respublika ta’lim muassasalarida **korrupsiyaga qarshi kurashishga oid huquqiy ta’lim va tarbiya berish tashkil etildi** (2021-yil 6-iyuldagi PQ-5177-son qarori)



Davlat xizmatchilarini **“halollik vaksinasi”** tamoyili asosida korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to‘qnashuvi va odob-axloq qoidalarini bo‘yicha maxsus o‘quv kurslarda o‘qitish tizimini joriy etildi (2021-yil 6-iyuldagi PQ-5177-son qarori)



Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish maqsadida, **2025-yil 1-yanvardan «Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi» elektron platformasini** joriy etilishi belgilandi (2024-yil 21-iyundagi PQ-228-son qarori)

2.“DAVLAT VA JAMIYAT HAYOTINING BARCHA SOHALARIDA KORRUPSIYANING OLDINI OLISHGA DOIR CHORA-TADBIRLARNI AMALGA OSHIRISH” yo‘nalishida qilingan ishlar:

Davlat boshqaruvida “inson omili”ni keskin kamaytirish maqsadida, Adliya vazirligi huzuridagi **Davlat xizmatlari markazlari hamda mobil ilovalar orqali (my3.gov.uz) davlat xizmatlaridan foydalanish tizimlari joriy etildi** (2017-yil 12-dekabrda PF-5278-son Farmoni)

O‘zbekiston Respublikasi **Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi** tashkil etildi (2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son Farmoni)

Xodimlarni samarali ijtimoiy himoyasini ta’minlash maqsadida, **individual korrupsiyaga qarshi ko‘rsatkichlar (KPI) asosida rag‘batlantirish** joriy etildi va boshq.

QR Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari Kengashlari tomonidan **mahalliy budjet mablag‘lardan foydalanilishi ustidan nazorat o‘rnatildi** (2021-yil 6-iyuldagi PF-6257-son Farmoni)


Ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash maqsadida, **davlat xaridlarini elektron shaklda o‘tkazish tizimi** yo‘lga qo‘yildi (2021-yil 22-apreldagi O‘RQ-684-son Qonuni)

Ishga qabul qilish ochiq tanlov asosida, sinov tadbirlarini Internet tarmog‘i orqali real vaqt rejimida amalga oshirish tartibi joriy etildi (2021- yil 6-iyuldagi PQ-5177-son qarori)

Davlat tashkilotlarida **korrupsiyaga qarshi ichki (komplaens) nazorat tuzilmalari** tashkil etildi (2021-yil 6-iyuldagi PQ-5177-son qarori)

Davlat tashkilotlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash maqsadida **“online” platformalar va portallar** ishga tushdi (xarid.uzes.uz, tender.mc.uz; “Openbyudjet”, data.egov.uz). (2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son Farmoni)

Davlat boshqaruvida “inson omili”ni keskin kamaytirish maqsadida ...



150dan ortiq davlat xizmatlari elektron shaklga o'tkazildi (*kommunal to'lovlar, jarima, transportga chiptalar xarid qilish, o'qishga hujjat topshirish, davlat organlariga elektron navbatning joriy etilishi va boshq.*)

300dan ortiq davlat xizmatining ko'rsatilishi Davlat xizmatlari markazlari orqali tashkil qilindi (*bolani bog'chaga joylashtirish, turar-joy ob'ektlarini kadastr pasportini shakllantirish, haydovchilik guvohnomasini almashtirish, kommunal hisoblagichlarni yechish va o'rnatish va boshq.*)

3. “KORRUPSIYAGA OID HUQUQBUZARLIKLARNI SODIR ETGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNING MUQARRARLIGI PRINSIPINI TA’MINLASH” yo‘nalishi:

Korrupsiyaga
oid
huquqbuzarliklar
toifasiga
kiruvchi
ma'muriy
huquqbuzarlik
va
jinoyatlar
(2020-yil
31-dekabrdagi
VMK-829-son)

Nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisini pora evaziga og‘dirib olish (MJtK 61¹-moddasi);

Davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organining xizmatchisini pora evaziga og‘dirib olish (MJtK 193¹-moddasi);

Davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi xizmatchisining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo‘lishi (MJtK 193²-moddasi)

O‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish (*JK 167-modda 2-qism "g" bandi*);

Firibgarlik (*JK 168-modda 3-qismi "v" bandi*);

Tijoratda pora evaziga og‘dirib olish (*JK 192⁹-moddasi*);

Nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisini pora evaziga og‘dirib olish (*JK 192¹⁰-moddasi*);

Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiste‘mol qilish (*JK 205-moddasi*);

Mansab soxtakorligi (*JK 209-moddasi*);

Pora olish, pora berish, pora olish-berishda vositachilik qilish (*JK 210, 211, 212-moddalar*);

Davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organining xizmatchisini pora evaziga og‘dirib olish (*JK 213-moddasi*);

Davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi xizmatchisining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo‘lishi (*JK 214-moddasi*);

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish (*JK 243-moddasi*);

Hokimiyatni suiiste‘mol qilish, hokimiyat vakolatidan tashqariga chiqish yoki hokimiyat harakatsizligi (*JK 301-moddasi*)



Korrupsiyaga
oid jinoyatlar
uchun **uzoq
muddatli
ozodlikdan
mahrum qilish
jazo chorasini**
keskin
kuchaytirish
(2021-yil
6-iyuldagi
PF-6257-son)

Korrupsiyaga
oid jinoyatlarni
sodir etgan
shaxslarga
nisbatan jinoiy
**jazoni o'tashda
jazoni
yengillashtirish**
normalarini
qo'llanilishiga
cheklovlar
belgilash
(2021-yil
6-iyuldagi
PF-6257-son)

Agentli
kka "Korrupsi
yaga oid
jinoyatlarni sodir
etishda aybdor
deb topilgan
shaxslarning
ochiq **elektron
reestri**"ni
yuritish belgilandi
(2021-yil
6-iyuldagi
PF-6257-son)

**Korrupsiyaga
oid
huquqbuzarlik
haqida xabar
bergan
shaxslarni
rag'batlantirish**
shakllari (*pul
mukofoti,
tashakkurnoma
yoki esdalik
sovg'a, davlat
mukofoti*)
belgilandi
(2020-yil
31-dekabrdagi
VMK-829-son)

Daromadlar
va mol-mulkni
deklaratsiyalash
jarayonida
aniqlangan
**noqonuniy
boylik
orttirganlik
uchun
javobgarlik
o'rnatish**
belgilandi
(2021-yil
6-iyuldagi
PF-6257-son)

Korrupsiyaning eng tarqalgan va eng xavflisi, bu Jinoyat kodeksning 210-moddasida nazarda tutilgan **pora olish** jinoyatidir

Pora olish:

- 10 yildan 15 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.



Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun jinoiy javobgarlikka tortilganlar statistikasi

2022 yilda – 3 116 nafar
mansabdor shaxslar jinoiy
javobgarlikka tortilgan.

2023 yilda – 3 575 nafar
mansabdor shaxslar jinoiy
javobgarlikka tortilgan (2022-yilga
nisbatan 15%ga ko'p).



2023 yilda mansabdor shaxslar eng ko'p quyidagicha turdagi jinoyatlarni sodir etgan:

o'zganing mulkini o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish – 2205 nafar (2022 yilda 2103 nafar);

mansab vakolatini suiiste'mol qilish – 397 (265);

firibgarlik – 272 (243);

pora olish, pora berish, pora olish-berishda vositachilik qilish – 195 (169);

hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish – 30 (14);

mansab soxtakorligi – 36 (51);

mansabga sovuqqonlik bilan qarash – 25 (22);

boshqa jinoyatlar – 415 (249).

Mansabdorlarning jinoyatlari natijasida 2023 yilda **1 trln 546 mlrd so'm** miqdorida moddiy zarar yetkazilgan bo'lib, shundan **1 trln 310 mlrd so'mi** yoki **84,7 foizi** undirilgan.

Yetkazilgan zarar miqdori 2022-yilga nisbatan 53 foizga oshgan.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi bilan, 2030 yilgacha quyidagilar eng ustuvor vazifa etib belgilandi:



- “Transparency International” xalqaro tashkiloti tomonidan e’lon qilinadigan **Korrupsiyani qabul qilish indeksida kamida 50 pog‘onaga ko’tarilish,**
- davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzish holatlarini **2 barobarga kamaytirish,**
- davlat xaridlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuzish orqali amalga oshirishda mablag‘larni **talon-toroj qilish holatlari, tovar va xizmatlarning narxi bozor qiymatidan oshib ketishining oldini olish bo‘yicha jamoatchilik nazoratini to‘laqonli joriy qilish** hamda
- **100 foiz** normativ-huquqiy hujjatlarning **“korrupsiyadan xoli qonunchilik” tamoyili asosida ishlab chiqilishini ta’minlash** ko‘rsatgichlariga erishish barcha davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida eng ustuvor vazifa etib belgilandi.




O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 7 iyulda BMT Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003 yil 31 oktyabr) qo'shilganligi, O'zbekistonda ***manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga oid huquqiy asoslarni*** ishlab chiqishga turtki bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 2023 yil 11 martdagi 54-son bo'yrug'i bilan ilovaga muvofiq tasdiqlangan **“Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to'g'risidagi Nizom»**

Xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar (konferensiyalar, anjuman, seminarlar) munosabati bilan taqdim etilgan sovg'aning qiymati **bazaviy hisoblash miqdorining 4 (to'rt) baravariga** teng ekanligi aniqlangan taqdirda, sovg'a davlat fuqarolik xizmatchisida qoldiriladi va u tomonidan o'z ixtiyoriga ko'ra tasarruf etiladi.



Sovg'aning qiymati belgilangan miqdordan ortiqligi aniqlangan taqdirda, sovg'a moliya-iqtisod bo'linmasi tomonidan davlat organining balansiga kiritiladi.



Tashkilotda ichki korrupsiyaning oldini olish maqsadida xodimlar o'rtasida xizmat majburiyatlarini qabul qilish bilan bog'liq bo'lmagan va xodim shaxsi bilan bog'liq deb e'tirof etilgan sovg'alarni berishda quyidagilarga rioya qilinadi:

sovg'a oluvchi uchun manfaatlar to'qnashuvi vaziyatini keltirib chiqarmasligi va sovg'a beruvchi oldida biror-bir majburiyatlarni yuzaga keltirmasligi lozim

sovg'a ochiq-oydin beriladi, sovg'a berilayotgani yashirilmaydi

sovg'ani faqat **umume'tirof etilgan bayramlar** (tavallud ayyomi, farzand tug'ilishi, Vatan himoyachilari kuni, Xalqaro xotin-qizlar kuni, Yangi yil va h.k) munosabati bilan berishga ruxsat etiladi

sovg'alar Tashkilotning kamida **uchta xodimi ishtirokida** berilishi lozim

sovg'ani berish chog'ida **sovg'a berish uchun sabab bo'lgan voqea-hodisa aniq bayon etiladi**

sovg'aning umumiy qiymati (barcha soliq va yig'imlar bilan birga) **bazaviy hisoblash miqdorining 5 (besh) barobaridan oshmasligi lozim**

bir xodimi ikkinchi xodimga sovg'a olish uchun sarflaydigan summa miqdori har holatda **bazaviy hisoblash miqdorining 1 (bir) barobaridan oshmasligi lozim**